

## TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHI YOSHLARNI AQLIY RIVOJLANISHIDAGI BEQIYOS O'RNI. RANGLARNI FOYDALARI

**Temirova Ro'zigul Muxtorovna**

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Talimarjon shari 13- sonli Bolalar musiqa va san'at maktabining Tasviriyy san'at fani o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola maktab yoshidagi o'quvchilarning tasviriyy san'at fanining aqliy rivojiga ta'siri. Ranglarni ajratish va ularning foydalari hamda maktab va maktabdan tashqari tasviriyy san'at fanini o'qitilish metodlariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** erkin ijod, tasviriyy san'at, ranglar, metod, ko'rgazma, vositalar.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о влиянии изобразительного искусства на психическое развитие учащихся школьного возраста. Он посвящен разделению цветов и их пользе, а также методике обучения изобразительному искусству в школе и вне школы.

**Ключевые слова:** свободное творчество, изобразительное искусство, цвета, метод, выставка, инструменты.

### ABSTRACT

This article is about the influence of visual arts on the mental development of school-aged students. It is dedicated to the separation of colors and their benefits, as well as methods of teaching visual arts in school and outside school.

**Key words:** free creativity, fine art, colors, method, exhibition, tools.

### KIRISH

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Tasviriyy san'at fanining asosiy maqsadi - tasviriyy san'at sohasida o'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirish, ularni mustaqil fikrlash, bilimlarni mustaqil egallaydigan shaxs sifatida tarbiyalash. Qalam tasvir, rang tasvir, kompozitsiya va shu kabi fanlar bo'lajak rassom o'quvchilarni kasbiy va badiiy maxoratini shakllantirishda poydevor bo'ladi.

Shu sababli, bugungi kunda O'zbekiston va mustaqil ham do'stlik mamlakatlari maktablarida rasmni o'qitish jarayonidagi yutuqlarini tanqidiy o'zlashtirish va

barcha yaxshi tomonlarini hayotga tadbiq etish talabi oshib boryapti. Hozirgi kunda sanoati va intellectual salohiyati rivojlanlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy musoboqa fan, texnika va texnologiyalar sohasiga, natijada ta'lim sohasidagi musoboqaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida - respublikada ta'lim raqobatdosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlash darajasiga yetishi kerak degan maqsad qo'yilgan. Shu bilan bir qatorda tasviriy san'at faniga ham bo'lgan ehtiyojni ham aytib o'tish joiz.

Har bir bolaga tasviriy faoliyat yengil va tushunarlidir. Bu esa tasviriy san'atning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, bo'yoq qalam, bo'yoq, bo'r, qog'oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirgan hajmda tayyorlash usullari bilan, odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar, odam va hayvon shakllarini yasashgan.

Tasviriy faoliyatning yana bir e'tiborga molik xususiyati shundaki, u insonni mehnatga yo'naltiradi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari balki yordamchi vositalardan - rasm uchun materiallar yoki o'lcham buyumlari, ish qurollari hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tkada bo'yash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish. bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi. Shuning uchun bolalarni tasviriy faoliyat darsida texnik malakalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqatchilarning kuzatishlaricha bola qanchalik qo'l bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar bilan, uning nutqi va tafakkuri shuncha tez va yaxshi rivojlanar ekan.

Tasviriy san'at mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan aplikatsiyalar, tayoqchalar, sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Bunda qo'lni mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi. Shu bilan birga Tasviriy faoliyat mashg'uloti bolalardan intizomlilik va tashkilotchilikni, jarayonni va uni bajarish ketma ketligini mahorat bilan rejalashtirishni talab etadi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarda kuzatish ko'nikmasi shakllanadi, tasvirlanadigan obyektning tekshirish usullari takomillashtiriladi.

Shaxsning badiiy madaniyati va ma'naviyatini rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni. Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni

aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - soʻzdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy sanʼat - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, har bir sanʼat turi oʻz ichida yana xillarga va janrlarga boʻlinadi. Sanʼatni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab boʻlib kelgan. Sanʼatning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - tasviriy sanʼatdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklini oʻziga oʻxshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, oʻzaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi. Sanʼatkor oʻz asarida voqea, hodisa, holatning maʼlum bir zumdagi koʻrinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning maʼnaviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavur qiladi. Oʻquvchi biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat oʻziga oʻxshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Oʻquvchi shu ishlayotgan tasvir orqali awalo oʻzining fikr va tuygʻularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Rassomlik sanʼatida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning oʻzaro muvozanatini toʻgʻri koʻrsatishda rasmni aniq va toʻgʻri ishlashning juda muhim ahamiyati bor. Oʻquvchilar oʻz asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti boʻlgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud boʻlgan hodisalarning ayrim jihatlari oʻzgartilib, boʻrttirib koʻrsatishi ham mumkin. Bundan koʻrinib turibdiki, tasviriy sanʼat asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni oʻrganish va sirlarini ochishga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga taʼsir koʻrsatadi. Tasviriy sanʼat inson ongiga tezda taʼsir etib, unda ezgu hislar uygʻotadigan, kishini ruhlantirib, maʼnaviy olamini boyitadigan sanʼat turiaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy sanʼat inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Tasviriy sanʼat oʻquv predmeti har bir inson uchun zarur boʻlgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir. Chunki har bir oʻquvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qatʼiy nazar u goʻzallikdan bahramand boʻlishi, undan zavqlanib dam olishi, ish vaqtida sarflangan quvvatni tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanʼat asarlari bilan muzey, koʻrgazmalarda va boshqa joylarda tanishish ularni idrok etish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishiladi.

Bolalarda tasviriy sanʼat darsidagi faoliyat jarayoniga quyidagi omillar tasir koʻrsatadi. Bular: - Bola ijod qilayotgan sharoit, bolaning shaxsiy xususiyatlari, isteʼdodi, motevatsiyasi, badiiy ijodiyotga qiziqishi, ish materiallari, bola bilan oʻzaro munosabat jarayonida kattalarga boʻlgan ishonchi, xavfsizlik munosabatlarida ishonch tuygʻusi va boshqalar kiradi.

Tasviriy san'atda ranglarning o'rni beqiyosdir. Chunki har bir o'quvchi o'z xarakteriga mos biron rangni yaxshi ko'radi. Ranglar inson xarakterini, kayfiyatini, hattoki ichki olamini o'zgartiradigan xususiyatga egadir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki maktab yoshidagi bolalarning 70 % idan ko'prog'I yorqin ranglarni xush ko'rishar ekan. Bolalarning ichki dunyosini yanada go'zallashtirish maqsadida barcha ranglardan o'z o'rnida foydalanish kerak. Ranglar va ularning xususiyatlari to'g'risida qancha ko'p fikr yuritsakda nafaqat foydali tomoni balki zararini ham tan olishimiz kerak. Ammo ranglar inson tafakkuriga qarab haddan ortiq to'q ranglar inson kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Masalan qizil rang-e'tiborni tortishi bilan bir qatorda markaziy asab tizimiga ta'sir qiladi. Har bir o'quvchining individual xarakteridan kelib chiqib shuni aytib o'tish joizki barcha to'q ranglar asab tizimiga ta'sir etadi shuning uchun ranglarni o'quvchilar uchun tanlash ehtiyot choralarini ko'rish tavsiya etiladi.

O'quvchilar Tasviriy san'at darsida ularning rassomligini, ijodkorligini munosib taqdirlashimiz lozim. Aminmizki, bolalarga ta'lim tarbiya berishda turli tuman ranglar jilosidan foydalanishimiz mumkin. Tasviriy san'at darslarida ularning rassomligini, ijodkorligini munosib taqdirlashimiz, hamisha ularni poklikka, go'zallikka chorlashimiz darkor. Yoshlikdanoq ular dunyoni eng chiroyli va nafis tasavvur qilishsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Zero, bolajonlarni kichik yoshdanoq beg'uborlikka oshno etib tarbiyalasak, kelajakda ular ijodkor qalb sohiblari bo'lib yetishib chiqishi shubhasizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdirasilov Sunnatulla Fayzullayevich  
TASVIRIY SAN'AT O'QITISH METODIKASI Toshkent - «Fan va texnologiya» - 2012
2. N. Yu. Yusupova, M.U.Hamidova, N. Q.Abidova, M. YU. Pardayeva: "Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi" Toshkent- "Fan va texnologiya"- 2018y
3. S. Abdurasilov. N. Tolipov "RANGTASVIR"  
Toshkent-"2003" yil
4. G'.A. Artiqov "Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi" Sharq nashriyoti. Toshkent 2012 yil
5. B. Boymetov, S. Abdurasilov Cizmatasvir. Toshkent G'ofur G'ulom nashriyoti 2004
6. B. Boymetov Qalamtasvir Tashkent "Ilm ziyo" 2007 yil